

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot
obyekti sifatida6

Dilrabo ELOVA

Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza
qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)24

Вафа Абдуллаева-Набиева

Развитие синтаксиса азербайджанского языка в рамках
лингвокультурологии40

Kamil Tilyabayev

O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot58

Shaxlo Naraliyeva

O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik
tadqiqi (O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)82

ADABIYOTSUNOSLIK

Gulbahor Ashurova

Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik
vosita sifatida.....95

Abdug'ani Nasriddinov

Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi108

FAN. TA'LIM. METODIKA

Umidjon Kushayev

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi: institutsional
transformatsiya va strategik model (O'zbekiston misolida)120

Мадина Назарова

Формирование иноязычной риторической компетенции на
материале английского официально-делового дискурса в
неязыковом вузе133

TARIX. MANBASHUNOSLIK

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar va o'g'uz turklari149

Ilhami Cəfərsəy

Avrasiyanın qədim Xivə, Samara və Buxara şəhərləri172

CONTENT

LINGUISTICS

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

The Holy Qur'an as an Object of Theolinguistic Research in
Uzbek Linguistics.....6

Dilrabo Elova

Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts24

Vafa Abdullayeva-Nabiyeva

Development of the Syntax of the Azerbaijani Language Within
the Framework of Linguoculturology40

Kamil Tilyabaev

Uzbek Language: Acquisition, Decolonisation and Emotions58

Shakhlo Naralieva

A Cognitive-Pragmatic Study of Environmental Discourse in Uzbek
Fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad).....82

LITERATURE

Gulbahor Ashurova

Cycle of Poems as a Lyric Device in the Creation of the Image of
Alisher Navo'i95

Abdugani Nasriddinov

The Harmony of Philosophy and Religion in Literature108

SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

Umidjon Kushaev

Integration of Artificial Intelligence into the Education System: Institutional
Transformation and Strategic Model (Uzbekistan as an Example)120

Madina Nazarova

Formation of Foreign-Language Rhetorical Competence Through
English Official-Business Discourse in Non-Language Higher Education...133

HISTORY. SOURCE STUDIES

Shamsiddin S. Kamoliddin

Samanids and Oghuz Turks149

Ilhami Jafarsoy

Ancient Khiva, Samara and Bukhara Cities of Eurasia172

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot obyekti sifatida

Dilfuza Nurmanova¹Nodirabegim Ismoilova²

Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida yangi shakllanib borayotgan teolingvistika yo'nalishining dolzarb masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Unda diniy matnlarning lingvistik, pragmatik hamda antropotsentrik xususiyatlari tahlil qilinadi, mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, yangi tadqiq yo'nalishlari taklif etiladi. Ishda diniy matnlar tasnifi qayta ko'rib chiqilib, ular muqaddas diniy manbalar va inson tomonidan yaratilgan diniy matnlarga ajratiladi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor Qur'oni Karimning o'zbek tilidagi tafsirlarida uchraydigan o'xshatish konstruksiyalarining lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, diniy matnlarni shaxs-nutq munosabati asosida tahlil qilish, ularning sotsiolingvistik, psixolingvistik va lingvomadaniy jihatlarini ochib berish zarurligi asoslab beriladi. Mazkur maqolada teolingvistikaning nazariy asoslarini boyitish, o'zbek tilidagi diniy matnlarni kompleks o'rganish hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim metodologik zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: *teolingvistika, diniy matnlar, muqaddas diniy manbalar, Qur'oni Karim, tafsir, o'zbek tilshunosligi, lingvistik tahlil, pragmatika.*

Kirish

XX asr dunyo tilshunosligida antropotsentrik paradigma shakllanib, til tadqiqida inson omili asosiy o'rinda turuvchi kognitiv

¹ Nurmanova Dilfuza – filologiya fanlari doktori, professor, Andijon davlat universiteti.

E-mail: nurmanova73@icloud.com

ORCID ID:0009-0002-6075-5387

² Ismoilova Nodirabegim – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b., Andijon davlat pedagogika instituti.

E-mail: ismoilovanodirabegim30@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-5295-696X

Iqtibos uchun: Nurmanova, D., Ismoilova, N. 2026. "O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot obyekti sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 6–23.

lingvistika, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, teolingvistika, reklama lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi yangi sohalar bo'y ko'rsatdi. Ular orasida teolingvistika o'zining diniy uslub doirasidagi barcha diniy matnlarni tadqiq obyektiga aylantirish xususiyati bilan alohida qimmat kasb etmoqda.

Teolingvistikaning alohida yo'nalish sifatida shakllanishi uning tavsifiy tadrijidagi bir qator tilshunos olimlarning turlicha nazariy qarashlari va turlicha amaliy izlanishlari bilan bog'liq holdagi taraqqiyot yo'lini bosib o'tgani bilan izohlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda qator jabhalarga doir turli masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi diniy nutq(matn)ning atroflicha o'rganilishiga, teolingvistikani turfa xil dinlarga oid ilmiy-falsafiy qarashlar bilan ko'lam kasb etishiga sabab bo'lmoqda.

XX asr tilshunosligida antprotsentrik paradigma asosida bir qator yangi yo'nalishlar bilan parallel ravishda teolingvistika ham shakllandi. Mazkur yo'nalish bugun dunyoning ko'plab ilmiy soha vakillari qatori o'zbek tilshunoslarida ham tadqiq ishtiyoqini uyg'otib, dinshunoslik va tilshunoslikning aloqasini o'rganuvchi navqiron fan tarmog'i sifatida dolzarblik kasb etmoqda.

Dinning xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb eta boshlaganiga urg'u berar ekan, Sh.Sultonova o'z maqolasida hozirda zamonaviy milliy tillarda asosiy diniy tushunchalarni ifodalovchi komponentlar ishtirok etgan frazeologik birliklar faollashganiga urg'u beradi va shunday yozadi: "xususan, mamlakatimizda ham mustaqillikdan so'ng keyingi davr ichida diniy-falsafiy matnlarning jamiyat hayotidagi roli ortishi bilan bog'liq holda dinga oid so'zlar va frazeologizmlarni qo'llash holati faollashgani kuzatilmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillardagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar natijasi o'laroq tadqiqotchilar uchun diniy leksikaning til tizimidagi o'rnini o'rganish imkoniyatlari kengaydi" [Султонова 2020, 114].

Asosiy qism

O'zbek tilshunosligida ham ayni vaqtga qadar teolingvistik yo'nalishda bajarilgan qimmatli tadqiqotlar mavjudligini alohida e'tirof etish zarur. Ular sirasida tilshunoslar N.Uluqov, T.Yuldashev, M.Galiyeva, Sh.Sultonova, Sh.R.Amonturdiyeva, Sh.T.Mahmaraimova, Sh.Yusupovalarning o'zbek diniy matnlarining qator lingvistik xususyatlariga bag'ishlangan dissertatsiyalari, M.Umarxo'jayevning "O'zbek tilidagi diniy atamalarning ommabop lug'ati" hamda

Sh.S.Sirojiddinovning “Diniy-falsafiy ta’limotlar va Navoiy dunyoqarashi” nomli maqolasi alohida qimmat kasb etadi.

Professor N.Uluqovning nomzodlik dissertatsiyasi [Улуков 1997, 12]da o‘zbek tilidagi diniy matnlar ekzotik leksikasining ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur lug‘aviy birliklar quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratiladi: 1. *Ekzotik so‘zlar*. 2. *Ekzotik atoqli otlar*. 3. *Ekzotik frazeologiya*.

Bundan tashqari, tilshunos olim o‘zbek tilidagi diniy matnlar tarkibida uchraydigan *arabcha ekzotizmlarni* tahlil etib, o‘nta mavzuviy guruhlariga bo‘lib ko‘rsatadi. Xususan,

- 1) *inson tushunchasi bilan bog‘liq*;
- 2) *hayvon nomlarini ifoda etuvchi*;
- 3) *kiyim-kechak va taqinchoqlar nomini bildiruvchi*;
- 4) *diniy tushuncha va tasavvurlar bilan bog‘liq*;
- 5) *daraxtlar va giyohlar nomlarini bildiruvchi*;
- 6) *taomlar va ichimliklar nomlarini bildiruvchi*;
- 7) *kasallik nomlarini bildiruvchi*;
- 8) *o‘lchov, miqdor tushunchasini ifodalovchi*;
- 9) *musulmon huquqi bilan bog‘liq*;

diniy, mahalliy soliq nomlarini ifoda etuvchi ekzotizmlar ajratiladi. Ekzotizm – o‘zga xalq hayoti va madaniyatiga oid realiyalarni ifodalovchi o‘zlashtirma so‘z [Александрова 2010, 7-8]larni anglatadi. Ko‘p hollarda diniy tushuncha anglatuvchi so‘z va iboralar ham ekzotizm sifatida qaraladi, biroq, Sh.Yusupovanning ta’kidlashicha, ekzotizm bir xalq madaniyati va hayotida mavjud bo‘lmagan boshqa xalqqa oid realiyalarni ifodalovchi so‘z va birikmalardir. Shunga ko‘ra, dinga oid birliklarning ekzotizm sifatida emas, o‘zlashma so‘z, *birikma* va *termin* sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir [Юсупова 2020, 94].

T.Yuldashevning nomzodlik dissertatsiyasi [Юлдашев 2003, 23] Navoiy va Boburning islom farzlariga bag‘ishlangan asarlarida qo‘llanilgan shar‘iy atamalar va ularning til xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlanadi. Muallif Navoiyning “Sirojul-muslimiyn” va Boburning “Mubayyin” asarlarida qo‘llanilgan shar‘iy atamalarni jamlab, bu turdagi atamalarni leksik-semantik, geneologik va grammatik jihatdan tahlil qilish orqali Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbek atamashunosligiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib beradi [Юсупова 2018, 27].

M.Galiyevaning doktorlik dissertatsiyasi [Галиева 2019, 25] da dunyoning lisoniy tasvirida diniy mifologik tasavvurning aks etishi borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar atroflicha bayon etiladi

va diniy-mifologik tasavvurning dunyoning lisoniy tasvirida o'ziga xos ekani dalillanib, bu bo'yicha qimmatli xulosalar bayon etiladi. Xususan, din va til munosabati, dunyo diniy tasvirining tilda aks etishi, teolingvistikani mustaqil fanlararo lingvistik yo'nalish sifatida e'tirof etish mumkinligi asoslab beriladi. Olima "teolingvistika tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida ikki yo'nalish:

1) *diniy tilning muqaddas matnlar va dindorlar nutqi materiali asosida o'rganilishi;*

2) *dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkur aks etishining o'ziga xosliklarini tadqiq etishni o'z ichiga qamrab olishini ta'kidlaydi.* Tadqiqot teolingvistikaning yuqoridagi ikkinchi yo'nalishi – dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkur aks etishining o'ziga xosliklarini tadqiq etish masalalariga bag'ishlanadi.

Sh.Sultonovanning dissertatsiyasi [Султонова 2018, 12] da muqaddas matnlardagi zamon kategoriyasini ifodalovchi temporal so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritib berilgan. Tadqiqotda ishning maqsadiga monand holda asosiy e'tibor temporallikni yoritishga qaratilgan bo'lib, muqaddas matnlardan keltirilgan misollar asosida temporallikning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, muqaddas matnlarda zamon to'g'risidagi ta'limotning falsafiy jihatlari bilan uzviy bog'liqlikda lisoniy jihatlari tahlil qilingan. E'tiborlisi shundaki, muqaddas matnlardagi temporallik ma'nosi ikki xil din vakillari – *musulmon* va *xristian* xalqlari ongi va madaniyatida aks etishining lingvomadaniy xususiyatlari, o'ziga xosliklarini yoritish asosida ochib berilgan.

Sh.Sultonova o'z izlanishlarida mifologiya va din ta'siri ostida tilda shakllangan diniy leksikani diniy frazeologik birliklarning muhim komponenti sifatida tahlilga tortadi. Izlanishlar davomida dunyo tilshunosligida din va frazeologiya o'rtasidagi aloqani o'rganishga bag'ishlangan ishlar tahlil qilinar ekan, diniy frazeologizmlar tarkibida ishtirok etuvchi o'zbek va rus tillaridagi diniy leksika mavzu jihatdan tasniflanib, leksik sathdagi ijtimoiy cheklangan leksikadan umumxalq ishlatadigan leksikaga o'tib, qo'llanish sohasi kengayib borayotganligi haqida aytiladi. Bundan tashqari, olima diniy frazeologizmlar tarkibida asosiy komponent bo'lib keluvchi diniy markerlangan so'zlar – diniy leksika xususida so'z yuritar ekan, *o'zbek tilidagi diniy frazeologik birliklar tadqiqi masalasi* o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri ekanini alohida e'tirof etadi.

Sh.Sultonova izlanishlarida diniy frazeologizmlar tarkibida ishtirok etuvchi diniy leksikani quyidagicha tasniflaydi:

- 1) Yaratuvchining nomlari;
- 2) Payg'ambarlar, ularning safdoshlari, g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan mavjudotlar nomlari;
- 3) yovuz kuchlarni anglatuvchi personajlar nomlari;
- 4) mifologik personajlar nomlari;
- 5) narigi dunyo bilan bog'liq joy va voqealar nomlari;
- 6) diniy-konfessional terminlar;
- 7) kishilarning e'tiqodiga ko'ra nomlanishi;
- 8) ibodat, diniy marosimlar, diniy bayramlar va boshqalar bilan bog'liq leksika. Mazkur 8-guruh o'z ichida: a) *diniy ta'limot va qarashlar bilan bog'liq ish-harakat va jarayonlar*; b) *ibodat va marosimlar uchun mo'ljallangan predmetlar nomlari*; d) *ibodat va marosimlar uchun mo'ljallangan bino va inshootlar, ularning qismlari, diniy tashkilotlar nomlari*; e) *diniy bayramlar nomlari*; f) *diniy qonun-qoidalarga to'g'ri kelmaydigan, ularni inkor qiladigan tushunchalar nomlari* kabi 5 ta qismni birlashtiradi [Султонова 2020, 115].

Shu o'rinda olimaning tasnifidagi diniy leksikaning "*narigi dunyo bilan bog'liq joy va voqealar nomlari*" nomlanishiga nisbatan mulohaza tug'iladi. Bizningcha, diniy leksikaning ushbu mavzuviy guruhini nomlashda so'zlashuv uslubiga xos qo'llanishda bo'lgan "narigi dunyo" birikmasi o'rnida "oxirat" diniy terminini qo'llash maqsadga muvofiq ko'rinadi. Buning isboti sifatida Qur'oni Karimda bot-bot takrorlanuvchi "oxirat" termini va shu bilan bir qatorda "oxirat dunyosi", "oxirat hovlisi", "oxirat diyori" birikmalari ishtirok etgan oyatlarni keltirish mumkin. "*Albatta, ham oxirat va ham bu dunyo biznikidir*" (Qur'oni Karim. Layl, 13-oyat); "*Va albatta, oxirat sen uchun bu dunyodan yaxshidir*" (Qur'oni Karim. Zuxo, 4-oyat); "*Zero oxirat ham, dunyo ham Allohnikidir*" (Qur'oni Karim. Najm, 25-oyat).

Bunday qo'llanishlar Qur'oni Karimning Zuxruf 35; Shuuro 20; Fussilat 16; G'ofir 39; Zumar 26; Ankabut 64; Nahl 30; Ra'd 26, 34; Tavba 38; An'om 32; Niso 74; Baqara 220 kabi sura-oyatlarida ham mavjud.

Sh. Amonturdiyevaning dissertatsiyasi [Амонтурдыева 2018, 55] "O'zbek diniy matnining funksional-stilistik tahlili"ga bag'ishlangan bo'lib, olimaning izlanishlari barobarida o'zbek diniy matnining funksional-stilistik jihatdan o'ziga xosligi asoslab berilgan. Tadqiqotda diniy matnlarning o'zbek tili funksional-stilistik tizimida tutgan o'rni, matnlararo o'xshash va farqli jihatlar, o'zbek tilining vazifaviy uslublari, ularning stilistik imkoniyatlari, bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari atroflicha bayon

qilingan. Shuningdek, o'zbek tilining funksional uslublari tizimida diniy matnlarning tutgan o'rni, diniy matnlar va so'zlashuv uslubi o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlar tahlilga tortilgan. "Xullas, – deydi Sh.Amonturdiyeva, – diniy matnlarning boshqa o'zbekcha matnlarda uchramaydigan, bir qadar qadimiylilik, rasmiylilik, diniylilik ottenkasi bo'lgan o'z so'zlari va terminologiyasi, diniy-teologik xarakterdagi turg'un va frazeologik iboralari mavjud. Ayni paytda, *ko'pma'nolilik, badiiy-estetik vazifani bajarish, polisemantizm, sinonim, paronim, omonim, antonim, neologizm, istorizm, arxaizm, dialektizm va jargon* singari bir qator semantik-stilistik hodisalar, metaforizatsiya DMning muhim xususiyatlaridan sanalmaydi" [Амонтурдиева 2021, 243].

Sh.Mahmaraimovanning dissertatsiyasi [Махмараимова 2018, 42] olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda teomorf metaforalarning tavsifi, o'ziga xosligi hayotiy misollar asosida izohlangan va teomorfik metaforaning kognitiv aspekti yuzasidan qimmatli ilmiy xulosalar keltirilgan.

Sh.Yusupovanning dissertatsiyasi [Юсупова 2018, 154] o'zbek tiliga xos diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etilganligi va diniy va'zlarning pragmatik xususiyatlari ochib berilganligi bilan qimmatlidir. Olima tadqiqot obyekti sifatida Qur'on tafsiri, hadislar, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ma'ruzalari, Alixonto'ra Sog'unining "Tarixi Muhammadiy" asari, diniy-ommabop nashrlar ("Hidoyat" jurnali va "Islom nuri" gazetasi) materiallarini tahlilga tortadi. Shu o'rinda Sh.Yusupovanning izlanishlarida tadqiqot obyektlaridan biri sifatida Qur'on tafsirining olinganligi dissertatsiyaning teolingvistik qimmatini oshirganini e'tirof etamiz. Uning haqli ta'kidicha: "mustaqillik yillarida Qur'onning tafsir va tarjimalari chop etildi. Shayx Alouddin Mansur, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Tafsirlariga o'zbek tilida keng kitobxonlar ommasi tomonidan murojaat qilinmoqda" [Юсупова 2018, 34 – 35]. Ta'kidlash joizki, dissertatsiyada Qur'oni Karim tafsiri yagona obyekt etib belgilanmagan bo'lsa-da, muayyan Islom ulamosining muayyan tafsiriga urg'u berilishi, ta'kidlab ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Boisi tafsir ulamolarning tafsirlari bir-biridan farq qiladi. Tadqiqotimizda Qur'oni Karim tafsiriga oid qimmatli ma'lumotlar mazkur bobning "O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot obyekti sifatida" nomli keyingi faslida ham keltirib o'tiladi.

Mazkur dissertatsiyaning yuqorida qayd etilgan izlanishlardan

farqli jihati shundaki, unda diniy matnlarning uslubiy, funksional va lingvopragmatik xususiyatlari atroflicha tavsiflanadi va bu orqali o'zbek tilidagi diniy matnlarning boshqa matn turlaridan (bu o'rinda hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud beshta funksional uslub: 1) *so'zlashuv uslub*; 2) *badiiy uslub*; 3) *ilmiy uslub*; 4) *rasmiy uslub*; 5) *publitsistik uslub*larga xos matnlar ko'zda tutiladi) farqli xususiyatlari ochib beriladi.

Bundan tashqari, ishda diniy matnlarga oid leksik birliklar tasniflanar ekan, diniy terminlarning *terminlashish*, *determinlashish* va *reterminlashish* hodisalari asosida yoritiladi. Olima arab tiliga oid diniy leksik birliklarning boshqa tillarga ta'siri va diniy internatsional terminlarning turli tillarda talqin qilinishini lisoniy vositalarning funksiyalari yuzasidan tahlil qilib, diniy matnlarda tilning reprezentativ funksiyasi yetakchilik qilishini asoslab beradi va yana o'zbek tilidagi diniy nutqning fonopragmatik xususiyatlarini nutqiy aktlar nazariyasi yordamida asoslaydi va diniy nutq prosodiyasining perlokutiv akt yuzaga chiqishidagi o'rnini eksperiment asosida ochib beradi.

O'zbek til ilmida mavjud tadqiqot xulosalaridan anglashiladiki, teolingvistika bugun faol shakllanayotgan navqiron yo'nalish sifatida e'tirof etilgani holda, ushbu tarmoq bo'yicha monografik tarzda yangidan yangi ilmiy izlanishlar olib borish ehtiyoj mavjud. Bu borada mulohaza yuritar ekan Sh.Yusupova teolingvistikani yangi nazariy qarashlar, amaliy mulohazalar bilan boyitishga xizmat qiluvchi quyidagi sakkiz masalani ajratib ko'rsatadi:

- 1) *diniy leksikaning sistemaviy tadqiqi*;
- 2) *hadislar matnining qurilish va til xususiyatlari*;
- 3) *diniy va'zlarning lisoniy xususiyatlari*;
- 4) *diniy va'zlar pragmatikasi*;
- 5) *duo matnlarining lingvopragmatik xususiyatlari*;
- 6) *diniy matnlarga xos dialogizatsiya*;
- 7) *diniy matnlarda hurmat shakllarining ifodalanishi*;
- 8) *qiyosiy teolingvistika masalalari* [Юсупова 2018, 54].

Olima o'z dissertatsiyasida ushbu sanab o'tilganlardan: *o'zbek tilida diniy va'zlarning lisoniy xususiyatlari*; *diniy va'zlar pragmatikasi*; *diniy matnlarga xos dialogizatsiya* bo'yicha o'z qarashlarini bayon etadi.

Yuqoridagi yo'nalishlarning muhimligini e'tirof etgan holda, bizningcha, teolingvistikaning dolzarb masalalari qatoriga quyidagilarni ham kiritish zarur:

- 1) *muqaddas diniy manba – Qur'oni Karim*(o'zbek tilidagi

ma'nolar tarjimai va tafsiri)ning teolingvistik tadqiqi;

2) *o'zbek tilidagi diniy matnlarning sintaktik xususiyatlari;*

3) *o'zbek tilidagi diniy matnlarda murojaat shakllarining ifodalanishi;*

4) *o'zbek tilidagi diniy matnlarda temporal deysisning pragmatik xususiyatlari;*

5) *o'zbek tilidagi diniy matnlarda deytik birliklarning matn hosil qilish funksiyalari;*

6) *o'zbek tilidagi diniy matnlarda qasam nutqiy janrining lingvistik va pragmatik tadqiqi;*

7) *o'zbek tilidagi diniy matnlarda numirativ birliklarning pragmatik xususiyatlari va sh.k.*

Sanab o'tilgan jihatlar yuzasidan bajarilajak tadqiqotlarda bugungi zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazari, xususan, *antropotsentrik paradigma asosida diniy matnlarni shaxs-nutq kesishmasida tadqiq etishga urg'u* berilishi maqsadga muvofiq. Va yana alohida ta'kidlash kerakki, antropotsentrik paradigma asosida nutq(matn)ni shaxs-nutq kesishmasida quyidagi muhim jihatlar:

1) *nutq(matn)ning egasi (so'zlovchining kim ekani, uning gender farqlanishi);*

2) *nutq(matn)ning qanday sotsial maqom egasiga tegishli ekani;*

3) *nutq(matn)ning kim(lar)ga nisbatan aytilgani (tinglovchi(lar)ning kim ekani, sotsial maqomi, bir yoki bir nechtaligi);*

4) *nutq(matn)ning tinglovchi(lar)ga ta'sir ko'lamini hisobga olgan holda tadqiqot olib boorish [Исmoilov 2021, 142] teolingvistik qarashlarning qimmatini oshiradi. Bu esa o'z o'rnida diniy matnlarning antropotsentrik tadqiqiga yo'l ochib, quyidagi:*

1) *o'zbek tilidagi diniy matnlarning sotsiolingvistik tadqiqi;*

2) *o'zbek tilidagi diniy matnlarning psixolingvistik tadqiqi;*

3) *o'zbek tilidagi diniy matnlarning lingvomadaniy tadqiqi;*

4) *o'zbek tilidagi diniy vazlarning linvopoetik xususiyatlari va shu kabi yo'nalishlarda izlanishlar olib borilishga zamin hozirlaydi. Dolzarb masalalar diniy matnlarning barcha turlari (muqaddas diniy manbalar, diniy matnlar: diniy va'zlar, duo matnlari va sh.k.), umuman, teolingvistik tadqiqotlar uchun zaruriy jihatlarni izohlaydi.*

Tadqiqotlarda diniy matnlar turlicha tavsiflanadi, xususan, diniy matnlar – boshqa matn turlaridan o'ziga xos fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va pragmatik xususiyatlari bilan farqlanadi. "Diniy matnlar – diniy an'analarga bog'liq matnlardir. Ular badiiy matnlardan e'tiqod, mifologiya, marosimlar, buyruqlar,

qonunlar, etik ko'rsatmalar, ruhiy istaklarning jamlanmasi ekanligi bilan farqlanadi". "Diniy matnlar muqaddas yozuvlar, muqaddas matnlar nomlari bilan ham ataladi, ular turli diniy an'analarga ko'ra muqaddas sanalgan, dinda markaziy ahamiyatga ega bo'lgan matnlardir".

Alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida olib borilgan teolingvistik tadqiqotlarda muqaddas Qur'oni Karim **tadqiqot obyekti** sifatida tavsiflanmagan. Xususan, uning tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik va pragmatik tabiati: o'ziga xos jihatlari, turlari va shakliy-mazmuniy qurilishi monografik asosda o'rganilmagan. Shu ma'noda hukmingizga havola etilayotgan mazkur monografik tadqiqotimiz aynan shu masalalarga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z o'rnida mavzuning dolzarbligi hamda tadqiq manbaining yangiligidan dalolat beradi. Izlanishlarimiz davomida yuqorida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon olimlarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi.

Avvalgi fasllarda M.Galiyevaning "teolingvistika tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida ikki yo'nalishga 1) diniy tilning muqaddas matnlar va dindorlar nutqi materiali asosida o'rganilishi; 2) dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkur aks etishining o'ziga xosliklarini tadqiq etishni o'z ichiga qamrab olishi haqidagi mulohazasini keltirib o'tdik. Bizning mazkur ishimiz birinchi yo'nalish doirasida bo'lib, muqaddas diniy manba – Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatish konstruksiyalarining lingvistik tadqiqiga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, matn tilshunosligi tamoyillariga asosan har qanday uslub matnlari tur va janrlarga ajratiladi. Tilshunos Sh.Yusupova o'zbek tilida qanday matnlar diniy matnlar sanaladi, degan savolni o'rta tashlar ekan, o'z savoliga javoban o'zbek tilidagi Islom diniga oid og'zaki va yozma matnlarni yettita guruhga bo'lib ko'rsatadi:

1. Muqaddas diniy matnlar: *Qur'on tafsiri*.
2. Hadislar.
3. Diniy ilmiy matnlar: *tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh kabi yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy matnlar*.
4. Dinga oid terminografik va qomusiy lug'atlar.
5. Diniy publitsistik matnlar.
6. Diniy va'zlar.
7. Duo matnlari [Юсупова 2018, 34].

Olimaning ushbu tasnifi diniy matnlarning o'ziga xos janr va guruhlarini qamray olishini e'tirof etamiz. Biroq, bizningcha, boshqa

nutq uslublariga mansub matn turlaridan farqli holda diniy uslubga xos diniy matnlar tavsifi va tasnifida, dastlab, ularni yaratuvchi *muallifning* kim ekaniga e'tibor qaratish eng muhim va hal qiluvchi jihatdir. Shu nuqtayi nazardan diniy matnlarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Tasnifda muqaddas diniy manbalarining **Yaratuvchi-Alloh taolo** tomonidan nozil qilinganligi bilan o'ziga xosligi; diniy matnlar esa muqaddas diniy manbalarga asoslanishi va o'z o'rnida insoniyat qalamiga mansub ekaniga urg'u beramiz:

I. Muqaddas diniy manbalar:

1. *Zabur.* 2. *Tavrot.* 3. *Injil.* 4. *Qur'oni Karim.*

II. Diniy matnlar:

1. *Hadislar.*
2. *Qur'oni Karimning ma'nolar tarjimas.*
3. *Qur'oni Karim tafsiri.*
4. *Diniy ilmiy matnlar (tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh kabi yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy matnlar).*
5. *Dinga oid terminografik va qomusiy lug'atlar.*
6. *Diniy publitsistik matnlar.*
7. *Diniy va'zlar.*
8. *Duo matnlari.*

E'tirof etish zarurki, ushbu tasnif Islom dini nuqti nazaridan yondashuvni izohlaydi.

I. Muqaddas diniy manbalar. Mazkur birinchi guruhni nomlashda matn deb emas, balki *manba* deyishimiz to'g'ridir. Bu esa o'z o'rnida uning eng asosiy va birlamchi ekanligiga ishora qiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida *manba* so'ziga shunday ta'rif beriladi: **manba arabcha – boshlanish; ibtido.** 1. geogr. Daryolarning **boshlanish** joyi. 2. Biror narsa **olinadigan, chiqadigan yoki ishlab chiqariladigan joy**, qurilma va sh.k. 3. ko'chma. Biror narsa, ish-harakat va sh.k.ning yuzaga kelishi, **faoliyat uchun asos-omil bo'lgan narsa; sabab.** 4. Ilmiy tadqiqot ishlari uchun **asos bo'lgan asar, hujjat** va sh.k. [ЎТЇЛ 2006, 535]. Agar izohga e'tibor berilsa, manba so'zi geografiyada ham, ishlab chiqarishda ham, ko'chma ma'no va ilmiy uslubda ham *ibtido, asos-omil* mazmunini ifodalamoqda. Shu ma'noda aytish mumkinki, birinchi guruhni izohlovchi *muqaddas diniy manbalar* ikkinchi guruhga birlashtirilgan barcha *diniy matn turlari* uchun ibtido, asos-omil vazifasini o'taydi.

Muqaddas diniy manbalar guruhiga kiritilgan *Zabur, Tavrot, Injil* hamda *Qur'oni Karim* xususida so'z borganda, Alloh taalo tomonidan quyidagi payg'ambarlarga nozil qilingan kitoblar tushuniladi:

1. Zabur – Dovud payg‘ambarga. “... *Batahqiq, Biz ba’zi payg‘ambarlarni ba’zilaridan afzal qildik. Va Dovudga Zaburni berdik*” (Qur’oni Karim. Isro, 55-oyat) [Қуръони Карим. Анъом сураси, 92]. Zaburning Dovud alayhissalomga berilgani haqida Qur’oni Karimning *Niso surasi 63-oyatida* ham keltiriladi.

2. Tavrot – Muso payg‘ambarga. “*Batahqiq, Biz Musoga Kitob (Tavrot)ni berdik va unga akasi Horunni vazir qildik*” (Qur’oni Karim. Furqon, 35-oyat). Kitob – Tavrotning Muso alayhissalomga berilgani haqida Qur’oni Karimning *Baqara 87, 53; An’om 154; Hud 110; Isro 2; Mu’minun 49; Qosos 43; Sajda 23; G’ofir 53; Fussilat 45* kabi qator sura-oyatlarida ham keltiriladi.

3. Injil – Iso payg‘ambarga. “... *Iyso binni Maryamni o’zidan oldingi Tavrotni tasdiqlovchi qilib yubordik. Unga Injilni berdik. ...*” (Qur’oni Karim. Moida, 46-oyat). Injilning Iso alayhissalomga berilgani haqida Qur’oni Karimning *Moida 110; Hadid 27* sura-oyatlarida ham keltiriladi.

4. Qur’on – Muhammad (s.a.v)ga. “*Va batahqiq, senga yetti takrorlanuvchini va ulug’ Qur’onni berdik*” (Qur’oni Karim. Hijr, 87-oyat). Qur’oni Karimning *Muhammad (s.a.v)*ga berilgani haqida *Isro 106; Toha 2; Qosos 85; Inson 23; A’la 6* kabi sura-oyatlarida ham keltiriladi.

Diniy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar asosida mazkur muqaddas diniy manbalarni bu tartibda keltirishimizning sababini bevosita payg‘ambarlarning dunyoga kelish va yashash tartibi (davri) bilan bog‘liq ekanligida deyishimiz mumkin. Shu o’rinda alohida ta’kidlash zarurki, so’nggi payg‘ambar Muhammad (s.a.v) yuborilgach, u zotga muqaddas diniy manbalarning avvalgi uchtasi: *Zabur, Tavrot, Injilni tasdiqlovchi* va shu bilan birga ulardagi shariatni yakunlovchi Qur’oni Karim nozil etilgan. “*Bu – Biz tushirgan kitob, muborakdir, o’zidan oldingini tasdiqlovchidir...*” (Qur’oni Karim. An’om, 92-oyat). Lug‘at ilmi mutaxassislarining “Qur’on” lafzining “o’qimoq”, “qiroat qilmoq”dan boshqa “jamlash” ma’nosi ham borligini ta’kidlaydilar. Bunda Alloh taaloning oxirgi kalomi o’zidan oldin nozil bo’lgan barcha ilohiy kitoblarning ma’no, hikmat va ahkomlarini o’zida jamlaganiga ishorat bordir [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф 2007, 4].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning yozishicha, barcha olamlarning Robbi bo’lmish Alloh taalo O’zi yaratgan dunyoda O’zi yaratgan inson qandoq hayot kechirishini bayon qilib berish uchun samoviy kitoblar nozil qilib turishni iroda qilgani ma’lum va mashhur. Insoniyat taraqqiy etish jarayonida nozil qilingan samoviy

kitoblar ("Zabur", "Tavrot" va "Injil")da Alloh taalo mazkur kitoblar nozil qilinayotgan davr va shart-sharoitlarni e'tiborga olgani ham ma'lum. Ya'ni, mazkur kitoblar insoniyat tarixidagi ma'lum bir bosqich uchun ko'zlangan edi. Ulardan avvalgisi o'z vazifasini o'tab bo'lganidan so'ng keyingisi kelib, uni amaldan qoldirar va o'ziga belgilangan vazifani ado etishga kirishar edi. O'zi yaratgan insoniyatni go'dakligidan o'ziga yarasha tarbiya qilib kelgan Alloh taalo insoniyat kamolga yetganida unga eng mukammal, qiyomatgacha amalda qoluvchi, har zamon va har makonda insonni ikki dunyo saodatiga boshlovchi hamda abadiy mo'jiza bo'lmish kitobi Qur'oni Karimni nozil etishni iroda qildi. Hakiym-u Xobir sifatiga sohib bo'lgan Alloh Taalo mazkur kitobni nozil etish uchun eng munosib vaqt, eng munosib joy, eng munosib til va ul mo'jizakor kitobni birinchi bo'lib qabul qilib olib, boshqalarga yetkazadigan eng munosib xalqni ixtiyor qildi [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф 2007, 2].

Tafsiri Hilol asarining oltinchi juzida qayd etilishicha, Qur'on so'zi arab tilidagi ibora bo'lib, "qiroat" ma'nosini bildiradi. Ulamolar ta'rifida esa Qur'on Allohning mo'jiza kalomi bo'lib, Muhammad sollallohu alayhi vasallamga vahiy [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Олтинчи жуз 602] orqali tushgan, tilovati ibodat hisoblanuvchi kitobdir. Demak, – deydi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, – Alloh taaloning kalomidan boshqa kalom hech qachon Qur'on bo'la olmaydi. Jumladan, Muhammad alayhissalomning kalomlari ham Qur'on bo'la olmaydi. Alloh taaloning inson zoti keltira olmaydigan qilib, maxsus nozil qilgan mo'jizakor kalomigina Qur'on bo'ladi. Alloh taalo O'zining oxirgi shariati uchun boqiy mo'jizani ixtiyor etdi. Butun olamlar uchun so'nggi va umumiy payg'ambar qilib tanlagan habibi Muhammad alayhissalomga O'zining kalomini bosh mo'jiza sifatida nozil qildi[[Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Олтинчи жуз 602].

Shayx o'z tafsirida Qur'onni boshqa kalomlardan ajratib turuvchi eng muhim jihatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatadi. Alloh taaloning kalomi Qur'on bo'lishining zaruriy shartlaridan:

1. *Muhammad alayhissalomga vahiy qilingan bo'lishidir.* Alloh taaloning boshqa payg'ambarlarga nozil qilgan kalomlari ham Qur'on hisoblanmaydi.

2. *Uning (Qur'onning) tilovati ibodat hisoblanishidir.* Shuningdek, uni ibodatda tilovat qilish shartligidir. Yana ham soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, Qur'on tilovati bo'lmasa, namoz bo'lmasligidir[[Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Олтинчи

жуз 611].

“Mana bir necha asr o'tdi, avlodlar ketidan avlodlar keldi, qancha-qancha ulkan ulamolar, yozuvchilar, til ustalari, tanqidchilar – barchalari o'z asarlarida Qur'onning mo'jizakor ekanini va barcha insonlar unga o'xshash narsa keltira olmasliklarini tan olishdan boshqa ilojlari bo'lmadi. Bu kitob o'zining hidoyati, qonun-qoidolari, uslubi va ma'nolari bilan bashariyatni o'jiz qoldirgan, qoldirib kelmoqda va shunday bo'lib qoladi” [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Олтинчи жуз 612].

Muqaddas diniy manba – Qur'oni Karim va uning muallifi borasida tadqiqotning ikkinchi bobi “O'xshatish amaliyotining ikki bosqichi” nomli faslida ham keltirib o'tamiz. O'z o'rnida ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida teolingvistik yo'nalishda bajarilajak tadqiqotlarda diniy matnlar, xususan, Quroni Karim, hadislarining asl manbasi arab tilida bo'lganligi sababli ularning o'zbek tilidagi *ma'nolar tarjimasi* yoki *tafsiriga* asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarjimon va ma'nolar tarjimasining hamda mufassir va tafsir manbaining o'ta ishonchli bo'lishi muhimdir.

II. Diniy matnlar. Bugungi kunda Islom dini bilan azaliy qadriyatlari va madaniyati, yashash tarzi va dunyoqarashi uyg'un bo'lgan o'zbek xalqining uning asl mohiyatini anglashga bo'lgan rag'batlari “Islomning tinchlikka, poklikka, insoniylikka, mehr-muruvvatga, vatanparvarlikka, ilm olishga chaqiruvchi din” ekanini anglashga urinishi barobarida “diniy ilmning rivoj topishi, jamiyat a'zolarining ko'pchilik qismida din haqida bilim olish ishtiyoqining paydo bo'lishi, diniy masalalarni chuqurroq anglash zarurati diniy ilmiy adabiyotlarga ham keng jamoatchilik tomonidan ko'p murojaat etilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa diniy matnlar uchungina xos bo'lgan jihatni – bir vaqtning o'zida ham ilmiylik, ham ommaboplikni o'zida jamlash xususiyatini namoyon etadi [Юсупова 2020, 34].

Yuqorida ta'kidlanganidek, *diniy matnlar* guruhiga: *hadislar, Qur'oni Karimning ma'nolar tarjimasi, Qur'oni Karim tafsiri, diniy ilmiy matnlar (tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh kabi yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy matnlar), dinga oid terminografik va qomusiy lug'atlar, diniy publitsistik matnlar, diniy va'zlar, duo matnlarini* kiritamiz. Ushbu tasnifda *hadislar*ning boshqa turlarga nisbatan turg'un xarakterga ega ekanini alohida e'tirof etish zarur. Bu esa ularning Islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi asosiy omil ekanligi bilan izohlanadi. Avval ta'kidlaganimizdek, diniy matnlar muqaddas diniy manbalarga tayanishi va insoniyatning qalamiga mansubligi, ya'ni uning muallifi inson ekani bilan o'ziga

xosdir. Shu ma'noda *hadislar* ham ayni jihatlarni o'zida namoyon qilsa-da, matnining turg'unligi, tahrir qilib bo'lmashligi hamda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin emasligi kabi jihatlari bilan *muqaddas diniy manbalar* guruhiga yaqin turadi.

Diniy matnlar guruhida "*Qur'oni Karimning ma'nolar tarjimasini*"; "*Qur'oni Karim tafsiri*" ham muhim ahamiyatga molik. Bu ikki guruh Yaratuvchi-Alloh taaloning ilohiy kitobining muayyan tilga tarjimasini hamda ushbu ma'nolar tarjimasiga muayyan Islom ulamosining sharxlarini izohlaydi.

Qur'oni Karim tafsiri

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf turli tafsirlar orasida bizning ulamolarimiz qilgan tafsirlar va ularning qimmati haqida fikr yuritib, shunday yozadi: "turli yo'nalishdagi son-sanoqsiz tafsirlar ichida bizning diyorimiz ulamolarining qilgan tafsirlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, Imom Faxriddin Roziyning kitoblarini Islom olami hurmat bilan "Tafsiri Kabir" – "Katta tafsir" deb atasa, Imom Jorulloh Zamaxshariyning "Kashshof" tafsiri haqida ulamolar: "'Kashshof" bo'lmaganda, Qur'oni Karimning ma'nolari kashf bo'lmay qolardi", – deydilar. Imom Abu Mansur Moturidiy Samarqandiyning "Ta'viylotu ahli Sunna" tafsirlari va boshqa kitoblari uchun Islom olami bu zotni "'Ahli sunna va jamoa" mazhabi aqiydasining islohchisi" deb nomlaganlar. Imom Abul Barakot Nasafiyning "Madorikut tanzil" tafsirlari hozirgacha Islom o'quv yurtlarida o'quv qo'llanmasi bo'lib kelmoqda" [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф, Олтинчи жуз, 618].

Bundan tashqari, mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda Islom ulamolarining sa'y-harakatlari bilan Qur'oni Karimning o'zbek tilidagi tafsirlari ham keng jamoatchilikka taqdim etildi:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining olti jildlik "Tafsiri Hilol" asari.

Shayx Abdulaziz Mansurning "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" [Шайх Абдулазиз Мансур 2014, 624].

2. Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiyning olti jildlik "Tafsiri Irfon – Qur'oni Karim ma'nolarining o'zbekcha tarjima va tafsir kitobi" [Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий 2019, 736].

3. Shayx Alouddin Mansurning "Qur'oni Azim muxtasar tafsiri" [Шайх Алоуддин Мансур 2020, 615] asarlari shular jumlasidan.

Mazkur tafsirlar ichida dastlabki qadam Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asaridir. Ulamolarning

ta'rifiga ko'ra: "O'zbekiston xalqi istiqlol ne'matiga musharraf bo'lgan bir paytda bu zot birinchilardan bo'lib, Qur'oni karimni tafsir qilishga bel bog'ladilar. Va o'z kitoblarini osmonga yangi chiqqan nozik hilolga mengazatib "Tafsiri Hilol" deya nomladilar. Bundan maqsadlari va aytmoqchi bo'lgan risolalari shundan iborat ediki, "bu tafsir bu o'lkada yozilajak tafsirlarning kichik bir debochasi bo'lsin va kelajakda mendan boshqalar to'lin oy kabi mukammal tafsirlar yozishsin!".

Qur'oni Karim tarjimasi

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Qur'oni Karim tarjimasi xususida so'z yuritar ekan uni hech bir tilga mukammal tarjima qilishning imkoni yo'qligini alohida ta'kidlaydi, buning sababi sifatida esa arab tilining imkoniyatlari, o'zga tillardan farq qiluvchi xususiyatlarga egaligi, arabcha matnning mo'jizakor ekani shu sababli ham Alloh taalo O'zining oxirgi kitobiga ushbu tilni ixtiyor qilganini aytadi. Shunday bo'lsa-da, Qur'oni Karimni o'qib-o'rganishga, anglab amal qilishga bo'lgan ehtiyojlarning salmog'i mo'jaz kalomning turli tillarga tarjima qilinishi taqozo qiladi. Shayx hazratlari bu haqida quyidagicha yozadi: "Bu xususiyatlar o'zga tillarda yo'q. Lekin Qur'on ma'nolarini tarjima qilishga ulamolarimiz ruxsat berganlar, buni zaruriy narsa, deb ta'kidlaganlar. ... Allohga shukrlar bo'lsinki, hozirda Qur'onga qaytish boshlandi, uni o'qib o'rganayotganlar kundan kunga ko'payib bormoqda. Tabiiyki, ma'nosini bilishni istovchilar ham ko'payib bormoqda" [Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, Олтинчи жуз, 618-619].

Qur'oni Karim arab tilida nozil qilinganligi bois, tabiiy taqozo bilan mazkur tadqiqotga uning o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi va tafsiri [Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол, VI жузлик, Шарқ, 2007,356] asos-manba sifatida tanlab olindi. ***"Shunday qilib, Biz uni arabiy Qur'on etib nozil qildik..."*** (Qur'oni Karim. Toha, 113-oyat). Fikrlarni dalillash uchun keltirilgan Qur'oni Karim sura(oyat)lari sharhi ham aynan mazkur manbaga asoslanganligi ta'kidlaymiz. Tadqiqotimizning ko'lami va maqsadidan kelib chiqqan holda, biz asosiy e'tiborni birinchi – *muqaddas diniy manbalar* guruhidagi Qur'oni Karim manbasiga asoslanib, ikkinchi – *diniy matnlar* guruhiga kiritilgan *Qur'oni Karim tafsiridagi* o'xshatish konstruksiyalarining lingvistik tadqiqiga qaratamiz. Diniy matnlar guruhining tarkibiga kiruvchi boshqa matn turlari esa kelgusi ishlarimiz uchun tadqiq manbai sifatida ko'zda tutilgan.

Xulosa

Teolingvistikaning alohida yo'nalish sifatida shakllanishi uning tavsifiy tadrijidagi bir qator tilshunos olimlarning turlicha nazariy qarashlari va turlicha amaliy izlanishlari bilan bog'liq holdagi taraqqiyot yo'lini bosib o'tgani bilan izohlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda turli masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi diniy diskursning o'rganilishiga, teolingvistikaga yangicha qarashlar kirib kelishiga sabab bo'ldi. Teolingvistika o'zbek tilshunoslarida ham tadqiq ishtiyoqini uyg'otib, dinshunoslik va tilshunoslikning aloqasini o'rganuvchi navqiron fan tarmog'i sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Albatta, buning obyektiv sababi sifatida Yangi O'zbekistonimizda barcha sohalar kabi "diniy erkinlik" borasida ham vaziyat keskin yaxshilanganini e'tirof etish zarur. Teolingvistika tarixiga nazar solinsa, Qur'oni Karimni o'rganish tilshunoslikning fan sifatida rivojlanishida sezilarli ta'sir o'tkazgani, bu esa o'z o'rnida din va tilshunoslik masalalari VII asrlardan oq boshlangani haqidagi qarashlarni dalillaydi. Muqaddas diniy manbalar to'rtta *Tavrot, Zabur, Injil, Qur'oni Karim*; diniy matnlar guruhiga 1) hadislar; 2) *Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi*; 3) *Qur'oni Karim tafsiri*; 4) diniy ilmiy matnlar (*tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh kabi yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy matnlar*); 5) *dinga oid terminografik va qomusiy lug'atlar*; 6) *diniy publitsistik matnlar*; 7) *diniy va'zlar*; 8) *duo matnlari* kiritish to'g'ridir. Ushbu tasnif Islom dini nuqtayi nazaridan yondashuvni izohlaydi. Bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida olib borilgan teolingvistik tadqiqotlarda muqaddas Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatish konstruksiyalari **tadqiqot obyekti** sifatida olinmagan. Mazkur o'xshatishlarning lingvistik va pragmatik tabiati: o'ziga xos jihatlari, turlari va shakliy-mazmuniy qurilishining monografik tarzda o'rganilishi o'zbek til ilmi uchun boy ilmiy material berishi shubhasiz.

Adabiyotlar

- Исмоилов, Х.Т. 2021. *Суд лингвистикасининг социолингвистик ва психолингвистик аспекти (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида)*: филол. фан. б. ф. д-ри. ... дисс. Андижон.
- Юсупова, Ш.Т. 2018. *Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари*. Филол. фан. б.ф.д. (PhD) дисс. Фарғона.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2006. V жилдлик. Бешинчи жилд. Тошкент: ЎЗМЭ.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2007. *Тафсири Ҳилол*. VI жузлик. Олтинчи жуз. Тошкент: Шарқ.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2007. *Тафсири Ҳилол*. VI

жузлик. Еттинчи жуз. Тошкент: Шарқ.

Шайх Абдулазиз Мансур. 2014. *Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири*. Тошкент: Тошкент ислом университети.

Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. 2019. *Тафсири Ирфон*. 6 жилд. Тошкент: Шарқ, 1, 2, 3, 4, 5, 6-жуз.

Шайх Алоуддин Мансур. 2020. *Қуръони Азим мухтасар тафсири*. Биринчи-иккинчи китоб. Тошкент: Шарқ.

The Holy Qur'an as an object of theolinguistic research in uzbek linguistics

Dilfuza Nurmanova¹

Nodirabegim Ismoilova²

Abstract

This article is devoted to the analysis of topical issues of the emerging field of theolinguistics in Uzbek linguistics. It examines the linguistic, pragmatic, and anthropocentric features of religious texts, summarizes existing scholarly approaches, and proposes new directions for research. The study revisits the classification of religious texts, dividing them into sacred religious sources and human-produced religious texts. The main focus of the research is on the linguistic and pragmatic characteristics of comparative constructions found in Uzbek interpretations (tafsirs) of the Qur'an. The paper also substantiates the necessity of analyzing religious texts within the framework of the "person-speech" relationship and highlights their sociolinguistic, psycholinguistic, and linguocultural aspects.

This article is significant in enriching the theoretical foundations of theolinguistics, providing a comprehensive study of religious texts in the Uzbek language, and establishing an important methodological basis for future research.

Key words: *theolinguistics, religious texts, sacred religious sources,*

¹ *Dilfuza Nurmanova* – Doctor of Philological Sciences, Professor, Andijan State University.

E-mail: nurmanova73@icloud.com

ORCID ID: 0009-0002-6075-5387

² *Nodirabegim Ismoilova* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Acting Associate Professor, Andijan State Pedagogical Institute.

E-mail: ismoilovanodirabegim30@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-5295-696X

For citation: Nurmanova, D., Ismoilova, N. 2026. "The Holy Quran as an Object of Theolinguistic Research in Uzbek Linguistics". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 6–23.

References

- Ismoilov, X.T 2021. *Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (jinoyat ishlari bo'yicha sud majlisi misolida)*: filol. fan. b. f. d-ri. ... diss. Andijon.
- Yusupova, Sh.T. 2018. *Diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari*. Filol. fan. b.f.d. (PhD) diss. Farg'ona.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2006. V jildlik. Beshinchi jild. Toshkent: O'zME.
- Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2007. *Tafsiri Hilol*. VI juzlik. Oltinchi juz. Toshkent: Sharq.
- Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2007. *Tafsiri Hilol*. VI juzlik. Yettinchi juz. Toshkent: Sharq.
- Shayx Abdulaziz Mansur. 2014. *Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
- Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. 2019. *Tafsiri Irfon*. 6 jild. Toshkent: Sharq, 1, 2, 3, 4, 5, 6-juz.
- Shayx Alouddin Mansur. 2020. *Qur'oni Azim muxtasar tafsiri*. Birinchi-ikkinchi kitob. Toshkent: Sharq.